



GUARANTEES OF HUMAN RIGHTS IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Juraev Umrbek Tuymurotovich

Cadet of the Academy of the Ministry of Internal Affairs

E-mail: jurayevumrbek608@gmail.com

Phone: +998994237364

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18604950>

ARTICLE INFO

Received: 05th February 2026

Accepted: 10th February 2026

Online: 11th February 2026

KEYWORDS

Constitution, human rights, guarantees, rule of law, international law, judicial protection, social state, ombudsman, referendum, democratic reforms.

ABSTRACT

This article analyzes the strengthening of human rights and freedoms in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, their legal guarantees and implementation mechanisms. It is argued that the new Constitution, adopted on the basis of a national referendum on April 30, 2023, strengthens the principles of the primacy of human rights, the social obligations of the state, the independence of the judicial system and the primacy of international law. It also analyzes the compatibility of human rights with international legal standards and their reflection in national legislation.

ГАРАНТИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Жураев Умрбек Туймуротович

Курсант Академии Министерства внутренних дел

E-mail: jurayevumrbek608@gmail.com. Телефон: +998994237364

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18604950>

ARTICLE INFO

Received: 05th February 2026

Accepted: 10th February 2026

Online: 11th February 2026

KEYWORDS

Конституция, права человека, гарантии, правовое государство, международное право, судебная защита, социальное государство, омбудсман, референдум, демократические реформы.

ABSTRACT

В данной статье анализируются закрепление прав и свобод человека в Конституции Республики Узбекистан, их правовые гарантии и механизмы реализации. Обосновывается, что в новой редакции Конституции, принятой 30 апреля 2023 года на основе всенародного референдума, закреплены принципы приоритета прав человека, социальных обязательств государства, независимости судебно-правовой системы и верховенства норм международного права. Также рассматривается соответствие прав человека международным правовым стандартам и их отражение в национальном законодательстве.

O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARI KAFOLATLARI

Jo'rayev Umrbek To'ymurotovich

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, kursant



ARTICLE INFO

Received: 05th February 2026

Accepted: 10th February 2026

Online: 11th February 2026

KEYWORDS

Konstitutsiya, inson huquqlari, kafolatlar, huquqiy davlat, xalqaro huquq, sud himoyasi, ijtimoiy davlat, ombudsman, referendum, demokratik islohotlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarining mustahkamlanishi, ularning huquqiy kafolatlari hamda amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari ustuvorligi, davlatning ijtimoiy majburiyatlari, sud-huquq tizimining mustaqilligi va xalqaro huquq normalarining ustuvorligi tamoyillari mustahkamlanganligi asoslab beriladi. Shuningdek, inson huquqlarining xalqaro huquqiy standartlari bilan uyg'unligi hamda milliy qonunchilikdagi aks etishi tahlil qilinadi.

Kirish

Inson huquqlari demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi [1]. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya 155 moddadan iborat bo'lib, inson huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan normalar hajmi va mazmuni jihatidan kengaytirildi [1].

Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekanini belgilangan [1]. Bu norma inson huquqlarini kafolatlash davlatning asosiy vazifasi ekanini anglatadi. 13-moddaga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) [2], Fuqarolik va siyosiy huquqlar

to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) [3], Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) [4] kabi asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilgan.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy usul, tizimli tahlil va tarixiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Konstitutsiya normalari xalqaro huquqiy hujjatlar bilan solishtirildi.

Asosiy manbalar sifatida:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir) [1];
- BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [2];
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt [3];
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt [4];
- "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida" gi Qonun [5];



- “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun [6] va boshqa normativ hujjatlar o‘rganildi.

Natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsiyada inson huquqlari quyidagi yo‘nalishlarda mustahkam kafolatlangan:

Shaxsiy huquqlar kafolatlari.

Konstitutsiyaning tegishli moddalarida yashash huquqi, erkinlik va daxlsizlik, qiynoqlarga yo‘l qo‘yilmasligi, shaxsiy hayot daxlsizligi mustahkamlangan [1]. Qiynoqlarning taqiqlanishi xalqaro standartlarga mos keladi [3, 7-modda].

Sud orqali himoya kafolatlari.

Har bir shaxs o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega [1]. Sud mustaqilligi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan [6].

Ijtimoiy huquqlar kafolatlari.

Konstitutsiyada ta‘lim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy ta‘minot huquqi mustahkamlangan [1]. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt talablariga muvofiqlik kuzatiladi [4].

Xalqaro huquqning ustuvorligi.

Konstitutsiyada xalqaro shartnomalar milliy qonunchilikning ajralmas qismi ekani belgilangan [1]. Bu norma inson huquqlarining universal standartlariga moslashuvni ta‘minlaydi.

Tahlil va muhokama

2023-yil 30-aprelda referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini mazmunan kengaytirdi hamda xalqaro huquqiy standartlarga yaqinlashtirdi [1]. Avvalgi 1992-yilgi tahrirda 128 modda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrir 155

moddadan iborat ekani konstitutsiyaviy tartibga solish doirasi kengayganini ko‘rsatadi [1]. Inson huquqlari bilan bog‘liq normalarning ko‘payishi davlat siyosatida inson omilining ustuvor ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani mustahkamlangan [1]. “Ijtimoiy davlat” tushunchasining konstitutsiyaviy darajada e‘tirof etilishi davlat zimmasiga aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash majburiyatini yuklaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 2-moddasida ham ishtirokchi davlatlar ushbu huquqlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish majburiyatini olishi belgilangan [4, 2-modda]. Mazkur norma milliy konstitutsiyaviy tamoyil bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Konstitutsiyaning 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e‘tirof etiladi [1]. Ushbu qoida BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida belgilangan “barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘iladi” degan prinsipga to‘la mos keladi [2, 1-modda]. Bu prinsip konstitutsiyaviy tuzumning asosini tashkil etadi va boshqa barcha normalarni talqin qilishda ustuvor mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsiy huquqlar kafolatlari tahlil qilinganda, Konstitutsiyada yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, qiynoqlarning taqiqlanishi, shaxsiy hayot daxlsizligi mustahkamlanganini ko‘rish mumkin [1]. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 7-moddasida hech kim qiynoqqa



solinmasligi yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy muomalaga duchor etilmasligi belgilangan [3, 7-modda]. Konstitutsiyada ham ayni mazmundagi kafolat nazarda tutilgan [1]. Bu holat milliy qonunchilikning xalqaro majburiyatlar bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi va sud orqali himoya huquqi alohida ahamiyatga ega. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida har bir shaxs jinoyat sodir etganlikda ayblanayotganda aybi qonuniy tartibda isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanishi belgilangan [3, 14-modda]. O'zbekiston Konstitutsiyasida ham aybsizlik prezumpsiyasi mustahkamlangan [1]. Bu norma jinoyat-protsessual tizimda shaxs huquqlarini himoya qilishning asosiy kafolatidir.

Sud mustaqilligi inson huquqlarini himoya qilishning muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi. "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida sud hokimiyati mustaqil ekani va faqat qonunga bo'ysunishi belgilangan [6, 1-modda]. Konstitutsiyada sudlar mustaqilligi, sudylar daxlsizligi va ularning faoliyatiga aralashuv taqiqlanishi mustahkamlangan [1]. Bu norma sud himoyasining real kafolatini yaratadi.

Inson huquqlarini ta'minlashda Ombudsman institutining o'rni alohida. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, Ombudsman inson huquqlariga rioya etilishini parlament nazorati shaklida amalga oshiradi [5, 3-modda]. Ombudsman fuqarolarning

murojaatlarini ko'rib chiqadi, davlat organlari faoliyatini o'rganadi va tavsiyalar beradi. Bu mexanizm inson huquqlarining institutsional kafolatlaridan biridir.

Ijtimoiy huquqlar masalasida Konstitutsiyada ta'lim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi mustahkamlangan [1]. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda umumiy o'rta ta'limning majburiylik belgilangan [9, 4-modda]. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13-moddasida ham ta'lim olish huquqi kafolatlanadi [4, 13-modda]. Shu tariqa, milliy va xalqaro huquqiy normalar o'rtasida tizimli uyg'unlik mavjud.

Mehnat qilish huquqi Konstitutsiyada mustahkamlangan bo'lib [1], Mehnat kodeksining 16-moddasida har bir shaxsning erkin mehnat qilish huquqi qayd etilgan [10, 16-modda]. Bu norma xalqaro paktning 6-moddasiga mos keladi [4, 6-modda]. Ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonunchilikda esa keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar huquqlari belgilangan [11, 3-modda].

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga oid normalar BMTning 2006-yildagi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan [8, 5-modda]. Konstitutsiyada tenglik va kamsitishning taqiqlanishi prinsipi mustahkamlangan [1], bu esa konvensiya talablariga mos keladi.

Bolalar huquqlarini himoya qilish masalasi ham konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 3-moddasida bolalarning manfaatlar ustuvorligi prinsipi belgilangan [7, 3-



modda]. Konstitutsiyada ham davlat bolalar huquqlarini himoya qilishi ko'rsatilgan [1].

Xalqaro huquqning milliy qonunchilikdagi o'rni alohida tahlilga loyiq. Konstitutsiyada xalqaro shartnomalar milliy qonunchilik tizimining tarkibiy qismi ekani belgilangan [1]. Bu norma inson huquqlarini xalqaro standartlar asosida himoya qilish imkonini beradi.

Konstitutsiyaviy sud inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatidir. "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirishi belgilangan [12, 1-modda]. Bu mexanizm konstitutsiyaviy nazoratni ta'minlaydi va huquqiy davlat prinsipini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari uch darajada — normativ, institutsional va xalqaro mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Normativ darajada Konstitutsiya va qonunlar huquqlarni belgilaydi [1]. Institutsional darajada sudlar, Ombudsman, Konstitutsiyaviy sud

faoliyat yuritadi [5; 6; 12]. Xalqaro darajada esa O'zbekiston BMTning shartnomaviy organlariga hisobot beradi [3; 4].

Umuman olganda, 2023-yilgi Konstitutsiya inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kengaytirgan, xalqaro huquqiy standartlarga moslashtirgan hamda davlatning ijtimoiy majburiyatlarini aniqroq belgilagan huquqiy hujjat sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi va ularni amalga oshirishning normativ, institutsional va protsessual kafolatlarini belgilaydi. 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar inson huquqlarining mazmunini kengaytirdi, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kuchaytirdi hamda xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlikni mustahkamladi.

Shunday qilib, Konstitutsiya inson huquqlari sohasida milliy va xalqaro standartlarga mos keluvchi mustahkam huquqiy asosni yaratadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "Adolat", 2023. – 1-155-moddalar, 7-45-betlar.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT, 1948-yil 10-dekabr. – 1-30-moddalar, 3-7-betlar.
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. BMT, 1966-yil. – 7, 14-moddalar, 12-25-betlar.
4. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. BMT, 1966-yil. – 6-13-moddalar, 9-21-betlar.
5. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2021-yil. – 3-12-moddalar, 4-9-betlar.
6. "Sudlar to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2021-yil. – 1-10-moddalar, 5-18-betlar.



7. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. BMT, 1989-yil. – 2–12-moddalar, 6–15-betlar.
8. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. BMT, 2006-yil. – 5–9-moddalar, 10–18-betlar.
9. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil. – 4–8-moddalar, 6–14-betlar.
10. O'zbekiston Respublikasi "Mehnat kodeksi". – Toshkent, 2022-yilgi tahrir. – 16–25-moddalar, 11–20-betlar.
11. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy himoya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2022-yil. – 3–15-moddalar, 5–19-betlar.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida Qonun. – Toshkent, 2021-yil. – 1–12-moddalar, 4–16-betlar.